

PISTANAMOLAR (BURSERALES) QABILASI TAVSIFI VA SISTEMATIKASI

Odiljonova Dilshodaxon Jasurbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti

biologiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1508208>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Pistanamolar (Burserales) qabilasi tarkibidagi Pistadoshlar oilasi va uning muhim vakillari, jumladan, Kotinus (Cotinus Hill.), Sirka daraxti (Rhus L.), Toksikodendron (Toxicodendron Nill.) va Pista (Pistacia L.) haqida ilmiy ma'lumotlar keltiriladi.

Annotation: This article provides scientific information about the Pistachos family within the tribe Pistanamos (Burserales) and its important representatives, including Cotinus (Cotinus Hill.), Vinegar Tree (Rhus L.), Toxicodendron (Toxicodendron Nill.), and Pista (Pistacia L.).

Аннотация: В этой статье представлена научная информация о семействе фисташек в трибе Pistanamos (Burserales) и его важных представителях, включая Cotinus (Cotinus Hill.), уксусное дерево (Rhus L.), токсойдендрон (Toxicodendron Nill.) и писта (Pistacia L.).

Kalit so'zlar: Ro'vak, tuguncha, yong'oqcha, mastika, zaharli sumax, antioksidant,

Keywords: fast, knot, nut, sealant, poisonous sumac, antioxidant,

Ключевые слова: быстро, узел, орех, герметик, ядовитый сумах, антиоксидант,

Pistanamolar (Burserales) – Сумаховые

Pistanamolar (Burserales) qabilasi tarkibidagi Pistadoshlar (Anacardiaceae Lindl.) oilasi turli xil biologik va ekologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'simliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu oila tarkibida oziq-ovqat, dorivor va sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan turlar mavjud bo'lib, ular, asosan, tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan.

Pistadoshlar oilasi — Anacardiaceae

Bu oilaga bir yoki ikki uyli daraxt va butalar kiradi. Barglari oddiy yoki murakkab, yonbargchasisiz. To'kiladigan yoki doim yashil, shoxlarida smola yo'llari bor. To'pgullari ro'vak. Gullari mayda, ikki yoki bir jinsli, aktinomorf. Kosacha va gulliqobig'i 3—5 tadan, ba'zan gulliqobig'i oddiy. Changchisi 5 yoki 10 ta, ba'zan ko'p yoki aksincha kamroq. Tugunchasi ustki, bir yoki 3—5 ta erkin yoki qo'shilib o'sgan urug'chibarglardan iborat. Gul formulasi: $\text{Ca}_{3-5} \text{Co}_{3-5} \text{A}_{3-10} \text{G}_{1-3-5}$. Mevasi danakcha yoki yong'oqcha.

Pistadoshlar oilasiga 80—85 turkum va 600 ga yaqin tur kiradi. Ular asosan tropik va subtropik hamda issiq mo'tadil iqlim mintaqalarida tarqalgan. O'rta Osiyoda 2 turkumga mansub 3 turi, O'zbekistonda esa 2 turkumga oid 2 turi o'sadi.

Totum (Rhus) turkumi

Oilani O'zbekistonda tarqalgan turkumlaridan biri Totum (Rhus) hisoblanadi. Bu turkumga butalar va daraxtlar kiradi. Barglari navbat bilan joylashgan, oddiy yoki murakkab. Kosachasi gulliqobig'i 5 tadan, changchisi 5 ta. Mevasi mayda, qizil rangli danakcha.

O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda 1 ta turi totum (Rhus coriaria) o'sadi. U kichik, kam shoxlangan daraxt yoki buta. Bo'yi 1—3(5) m gacha yetadi. Barglari tog' patsimon, uzunligi 15—18 sm. Bargechalari tukli, bandsiz, cho'ziq-tuxumsimon yoki nashtarsimon, chetlari yirik kungirak-arrasim. Gullari ro'vakda joylashgan. Changchi va urug'chi gullari alohida-alohida ro'vklarda joylashgan. Changchisi 5 ta, ba'zan 10 ta. Mevasi asosan

sharsimon, shirali. O'zbekistonda Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining tog'li tumanlarida o'sadi. Totum barglarida tanid moddasi bor.

Totumdan olingen tanid tibbiyotda, vinochilikda, to'qimachilik sanoatida ishlataladi. Totum barglari va novdalaridan qora, mevalaridan qizil, ildiz po'stlog'idan jigarrang bo'yoq olinadi.

Pista (Pistacia) turkumi

Pista turkumi vakillari daraxt yoki butalar. Barglari ko'pincha 3 ta bargchadan iborat, kamdan-kam bargchalari bandsiz, qalin, qattiq, silliq, och yashil. Keng ellipssimon yoki dumaloq-tuxumsimon. Gullari juda mayda, bir jinsli, ikki uyligi. Changchisi 4—5 ta. Urug'chisi 3 mebangchali, tugunchasi ustki, bir uyaligi. Bu oilaga mansub o'simliklarning ba'zilari allergik reaksiyalar yoki zaharli ta'sirlar chaqirishi mumkin.

O'rta Osiyoda 2 turi, O'zbekistonda esa 1 turi xandon pista — P. Vera o'sadi. U daraxt yoki buta, bo'y 5—7 m. Barglari ko'pincha 3 bargchali, bargchalari yaltiroq-yashil, ellipssimon yoki dumaloq-tuxumsimon, qisqa bandli. Changchi gullari tig'iz, murakkab ro'vakda, urug'chi gullari esa siyrak ro'vakda to'plangan. Mevasi cho'ziq-nashtarsimon, ingichka-tuxumsimon, ko'pincha dumaloq. O'zbekistonda Bobotog' va Janubi-G'arbiy Hisorda, Turkiston tog' tizmalari va G'arbiy Tiyonshanda tarqalgan.[1]

Oilaning yana bir necha muhim vakillari.

Kotinus (Cotinus Hill.) – Скумпия. Barg to'kuvchi butalar yoki kichik daraxtlar. Barglari oddiy, butun qirrali, yashil yoki qizg'ish tusga ega. Gullari mayda, yashil yoki sarg'ish, katta to'pgul hosil qiladi. Kuz faslida barglari yorqin qizil yoki binafsha rangga aylanganligi uchun bezak sifatida foydalanadilar. Cotinus coggygria – bezak o'simligi sifatida yetishtiriladi. Cotinus obovatus – Shimoliy Amerikada o'sadigan turi. Bezak o'simligi sifatida bog' va parklar uchun ekiladi. Dorivor maqsadlar uchun qobig'i va barglari antisептик xususiyatlarga ega.[2]

Sirka daraxti (Rhus L.) – Сумах. Barg to'kuvchi yoki doim yashil butalar va daraxtlar. Barglari murakkab, patsimon, kuzda qizg'ish tusga ega bo'ladi. Gullari mayda, yashil yoki qizg'ish, zinch to'pgul hosil qiladi. Mevalari mayda, qizil yoki jigarrang, nordon ta'mga ega.

Asosiy vakillari: Rhus coriaria – ziravor sifatida ishlataladi hamda Rhus typhina – bezak va sanoat uchun ekiladi.

Bu tur va turkumlarni ahamiyati asosan oziq-ovqat sanoatida mevasi ziravor sifatida ishlataladi. Dorivor xususiyatlaridan antibakterial, antioksidant va oshqozon faoliyatini yaxshilovchi ta'sirga ega. Toksikodendron (Toxicodendron Nill.) – Токсикодендрон. Ko'p yillik butalar yoki daraxtlar. Barglari murakkab, uchlik yoki patsimon shaklda. Tarkibida urushiol zaharli muddasi mavjud bo'lib, teriga tegsa allergik reaksiyalar chaqiradi. Toxicodendron radicans – zaharli sarmaşıq (poison ivy). Toxicodendron vernix – zaharli sumax (poison sumac) asosiy vakillari hisoblanadi. Bu turlar o'rmon ekotizimida muhim o'rincutadi.

Pista (Pistacia L.) – Фисташка. Doim yashil yoki barg to'kuvchi daraxt va butalar. Barglari murakkab, patsimon tuzilgan. Gullari mayda, to'pgul hosil qiladi. Mevalari yong'oqsimon, ichi yog'li urug' bilan to'ldirilgan. Asosiy vakillari: Pistacia vera – haqiqiy pista, oziq-ovqat mahsuloti sifatida ishlataladi. Pistacia lentiscus – mastika daraxti, efir moy va qatron olish uchun. Pistacia atlantica – sanoat uchun efir moy va qatron yetishtirish maqsadida ekiladi.[2]

Pista daraxtining ahamiyati

1. Oziq-ovqat sanoatida Pistacia vera ning mevasi pista yong'og'i sifatida iste'mol qilinadi. Hamda qandolat mahsulotlari va muzqaymoqlarda ishlataladi.
2. Dorivor xususiyatlari quyidagilar bo'lib yurak-qon tomir tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Tabiiy antioksidant xususiyatlarga ega.
3. Texnik va sanoat ahamiyati Pistacia lentiscus – mastika qatroni olinadi, u tibbiyot va kosmetika sohalarida ishlataladi. Yelim va lak sanoatida qo'llaniladi.

Xulosa

Pistadoshlar (Anacardiaceae) oilasi tarkibida oziq-ovqat, dorivor va sanoat uchun muhim bo'lgan o'simliklar mavjud. Kotinus va Sirka daraxti bezak o'simliklari sifatida, Toksikodendron ekologik jihatdan muhim bo'lsa, Pista oziq-ovqat va sanoat uchun bebaho resurs hisoblanadi. Pista daraxtining yong'oqlari dunyoda keng iste'mol qilinadi, shuningdek, uning moyi va qatroni turli sohalarda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Botanika(morfologiya, anatomiya, sistematika geobotanika) Pratov O'.P.
2. O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi Pratov O'.P.
3. Botanika. Yuksak o'simliklar sistematikasi. Shu. J. Tojiboyev, N. H Qarshiboyeva
4. Haydarov X.Q., Tashpulatov Y.SH. Mukumov I.U. O'SIMLIKLER SISTEMATIKASI (YUKSAK O'SIMLIKLER)